

**Kulasharova Muxlisa Zokir qizi**

*European medical university talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada hozirgi davrda eng ko'p tarqalgan kasalliklardan biri onkologik kasalliklar haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Onkologik kasalliklar, tashxis, davolanish, saraton, ayollar, kasallik belgisi, sog'liq.*

Barchamizga ma'lumki onkologik kasalliklar hech qanday simptomlarsiz, birorta belgilersiz vujudga keladi. Oqibatda ularni aniqlash imkoni judayam qiyinlashadi. Kasallik qancha kech aniqlansa, kasallik darajalariga qarab ularni davolash imkoniyati ham ancha pasayadi. Onkologik kasalliklar qancha tez tashxis qo'yilib, erta aniqlansa ularga qarshi kurashish shuncha osonlashadi. Bugungi kunda dunyoda ko'krak bezi saratonidan keyingi o'rinda bachadon bo'yni va bachadon tanasi raki judayam ko'p uchraydi. Ko'p hollarda ayollar kechikib murojaat qilishadi. Buning sababi ham bor. Kasallik belgilersiz rivojlanadi.

Onkologik kasalliklar nafaqat katta yoshdagi aholi, balki bolalar salomatligiga ham jiddiy ta'sir etayotgan muammolardan biridir. Mutaxassislarning fikricha, bunday kasalliklar profilaktikasiga oid tadbirlarni samarali tashkil etish va kasallikni erta bosqichda aniqlash orqali minglab bemorlarni sog'lom hayotga qaytarish mumkin.

Onkologik kasalliklar — hozirda insoniyatning yetakchi patologiyalar guruhidir. Jahon tibbiyoti amaliyotida kasallikni dastlabki bosqichlarini davolashda muvaffaqiyatga erishildi. Cheklovchi omillar — saratonning preklinik bosqichida muntazam keng ko'lamli diagnostik tekshiruvlarini tashkil etishning murakkabligi, ba'zi shakllarining patogenezi tezligining yuqori bo'lishi. Shu munosabat bilan, aholi o'rtasoda onkologik sergaklikni yaxshilash uchun ta'lim muhim ahamiyatga ega.

Onkologiya sohasi qadimgi davrlardan beri ko'pchilik soha vakillarining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Jumladan xorij olimlaridan I.Kubler-Ross, T.J.Meyer, D.Osoba, D.Spiegel, P.B.Jacobser, H.Kraemer va boshqalar va boshqa olimlar onkologiya sohasiga o'z hissasini qo'shganlar. O'zbekistonda onkologiya sohasining rivojlanishi L. D. Vasilenko, P. F. Borovskiy va boshqa olimlar nomi bilan bog'liq. Bundan tashqari M.N.Tillashaxov amaliy va eksperimental onkologiyaning turli sohalaridagi eng zamonaviy yutuqlarni jalb qilish bilan o'sma kasalligini davolashni rivojlantirish masalalari bilan shug'ullanadigan onkourolog jarrohlarni tarbiya etadigan o'ziga xos maktab yaratdi. Uning muallifligida 400 dan ortiq ilmiy ishlar yozildi, shu jumladan va shifokorlar, magistr va kliniklar uchun 10 ta uslubiy qo'llanma va tavsiyalar 3 ta monografiya yaratildi.

Bizga ma'lumki, kasalliklar ichida onkologik kasalliklarni bugungi kunda soni jihatidan ko'p uchaydigan va bevosit ruhiyat bilan bog'liq kasalliklar qatoriga qo'sha olamiz. Onkologik kasalliklar bilan yoshlar, ayollar, erkaklar, qariyalar birdek

og'rimoqdalar. Saraton so'zini eshitganimzda eng avvalo ko'z oldimizga ushbu kasallikning qurboni bo'lgan bizga yaqin bo'lgan odam keladi, yoki o'zimiz azob chekishimiz mumkin. Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, onkologik kasalliklardan vafot etganlar soni yildan yilga ortib bormoqda. Onkologik hastalik-bu tanadagi ichki to'qimalarda o'sadigan, bora-bora rivojlani o'linga olib keladigan yomon sifatli o'simta. Ushbu kasalliklarni keltirib chiqaradigan sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Onkologik kasalliklarni turli xil kimyoviy kanserogenlar ,biologik omillar xususan viruslar keltirib chiqarishi mumkin. Ularning barchasi dastlab DNK tuzilishi patologiyasiga olib keladi,natijada onkogen hujayralar faollanadi.Buning natijasida hujayralar nobud bo'lmasdan juda ko'p miqdorda ko'payadi va havfli o'smani keltirib chiqaradi. Statistika ma'lumotlarga qaraganda 95% hollarda saraton atrof-muhitning va yashash tarzining yomonligidan kelib chiqayotganini qayd etilmoqda. Afsuski hali onkologik kasalliklarning to'laqonli da'vosi topilmagan. Shuni ta'kidlash joizki,eng yuqori foizlarda noto'g'ri ovqatlanish rejimida yashamayotganligimiz,ayniqsa tez tayyor bo'ladigan fast fudlarni iste'mol qilayotganligimiz ham o'sma kasalliklarini rivojlanishiga olib kelmoqda.

O'zbekistonda onkologik kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash, kasallik bilan bog'liq bo'lgan noxush holatlarni oldini olish maqsadida Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 4-aprelda qabul qilingan PQ-2866-sonli "2017-2021- yillarda O'zbekiston Respublikasida onkologiya xizmatini yanada rivojlantirish va aholiga onkologik yordam ko'rsatishni takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu borada o'z yechimini kutayotgan, ustuvor vazifalarni hayotga tadbiq etishda dasturil amal bo'lmoqda. Qarorda belgilanga vazifalar izchillik bilan hayotga tadbiq etilishi natijasida viloyatdagi 15 ta onkologiya dipanseri Respublika ixtisoslashtirilga onkologiya va radiologiya ilmiy –amaliy tibbiyot markazining filiallariga aylantirildi. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2018-yil 25-yanvarda qabul qilingan PQ 3493- sonli "Shoshilinch tez tibbiy yordam tizimini jadal takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi

Bugungi kunda O'zbekistonda onkologik kasalliklarni oldini olish bo'yicha katta dasturlar amalga oshirilmoqda. Kasallikni erta aniqlash uchun ayollardan bir yilda bir marta tibbiy ko'rikdan o'tib, o'zlarining sog'liqlariga befarq bo'lmasliklarini iltimos qilardik. Chunki onkologik kasalliklarni davolash judayam qiyin hamda katta mablag' talab qilinadi. Shuningdek, samara olish uzoqqa cho'zilib, oqibatda ayanchli holatlarga olib kelishi mumkin.

Hozirgi vaqtda bolalar onkologiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bo'limda xavfli o'sma kasalliklarini tekshirish va unga tashxis qo'yishning barcha zamonaviy va ilg'or texnologiyali usullari amaliyotga joriy qilingan. Kasallik diagnostikasi jarayonida barcha laboratoriya tahlillaridan tortib o'sma markerlarini aniqlashgacha, ultratovushli va UTT «Doppler», rentgenologik, kompyuter tomografiya va MRT (magnit rezonansli tomografiya) morfologik tekshiruv, immunogistokimyoviy va sitogenetik tekshiruv usullari yo'lga qo'yilgan. Davolashda esa xirurgik yo'nalishda, birinchidan, xavfli o'sma kasalliklarida a'zolarni saqlovchi, bir vaqtda rekonstruktiv,

kengaytirilgan va kombinirlashgan (qorinparda orti sohasi, kichik chanoq a'zolari va buyraklar o'smalarida) operatsiyalar, ikkinchidan, suyak o'smalarida suyak autoplastik operatsiyalari va a'zolari saqlab qoluvchi operatsiyalar respublikamizda joriy qilindi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, xavfli o'sma kasalliklarini dastlabki bosqichlarida murojaat qilish bemorlarning to'liq tuzalib ketishiga imkon yaratadi. Jumladan, neyroblastomalar, buyrak, suyak, tuxumdon xavfli o'smalari va xavfli limfomalar samarali davolanmoqda. Xaqli ravishda ayta olamanki, bugungi kunda bo'limda olib borilayotgan ishlar ya'ni, bemorlarga o'tkazilayotgan tekshirish va davolash usullari zamon talabi darajasiga mos keladi. Bu borada o'tkazilayotgan tekshiruv usullaridan immunogisto kimyoviy va sitogenetik tekshiruvlar, qator o'sma markerlarini aniqlash, ultratovushli «Doppler» tekshiruvi kabi qator usullarni misol keltirishimiz mumkin. O'tkazilayotgan davolash usullaridan yuqori miqdorli va endovaskulyar kimyoterapiyaning turli sxema va variantlari, murakkab jarrohlik amaliyotlari (kengaytirilgan va kombinirlashgan, a'zo saqlovchi, suyak o'smalarida autoplastik)ni misol keltirishimiz mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Карпова Э.Б., Чулкова В.А. Онкологическое заболевание как психологический кризис // матер. научн.-практ. конф. «Ананьевские чтения – 2007». СПб.: Изд-во СПбГУ. – 2007. – С. 556 – 557
2. D.O'razbayeva "Onkologiya sohasida psixologik xizmat"uslubiy qo'llanma. Toshkent 2020.
- 3.X.Q. Shodmonov, X.Sh. Eshmurodov, O.T. Tursunova. Asab va ruhiy kasalliklar. – T., «Bilim», 2004. 4.M.M. Чеканова. Сестринское дело в психиатрии с курсом наркологии. Ростов-на-Дону, «Феникс», 2006.
- 5.Y.M. Fayziyev, E.H. Eshboyev. Umumiy va tibbiy psixologiya.